



Seriya IBUZ

Bank omonat shartnomasi №0000000

“Ipoteka-bank” ATIB nomidan ishonchnoma va filial Nizomiga asosan ish yurituvchi, kelgusida “Bank” deb yuritiluvchi, bir tomondan va fuqaro, kelgusida “Omonatchi” deb ataluvchi, ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti

1.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha Bank Omonatchidan qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan omonatni ushbu shartnomada va Bank Qoidalarida nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda omonat summasini qaytarish va unga foizlar to‘lash majburiyatini oladi.

1.2. Ushbu shartnoma asosida mijoz bankka quyidagi turdagi omonatlarni joylashtirishi mumkin: a) talab qilib olinguncha; b) jamg‘arma; d) muddatli omonatlar.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Omonatchi va Bankning huquq va majburiyatlari Bank Qoidalarida ko‘rsatib o‘tiladi. Mazkur qoidalar Bankning rasmiy (korporativ) www.ipotekabank.uz veb-saytida joylashtiriladi.

III. Tomonlarning javobgarligi

3.1. Shartnoma majburiyatlari bajarilmaganida yoki lozim darajada bajarilmaganida tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

IV. Nizolarni hal etish tartibi

4.1. Shartnoma yuzasidan vujudga keladigan kelishmovchiliklar tomonlarning o‘zaro kelishuviga muvofiq hal etiladi, o‘zaro hal etilmagan kelishmovchiliklar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida hal etiladi.

VI. Boshqa shartlar

5.1. Ushbu shartnoma omonat summasi Bankka kelib tushgan (kirim qilingan) kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi hamda omonat summasi va unga hisoblangan foizlar to‘liq qaytarilgunga qadar amal qiladi.

5.2. Bankning muddatli va jamg‘arma omonatlariga Omonatchi tanlagan omonat turi uchun Bank qoidasida belgilangan miqdorda, talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlarga Bankning amaldagi tariflarida belgilangan miqdorda foiz to‘lanadi.

5.3. Shartnomani imzolash bilan Omonatchi, Bank qoidalari va tariflari bilan tanishganligini tasdiqlaydi, shuningdek, shartnomani belgilangan amal qilish muddati davomida Bank qoidalari hamda tariflariga rioya qilish majburiyatini oladi.

5.4. Omonatchi yoki uning vakillari topshirig‘iga binoan omonat hisobvarag‘ida turgan pul mablag‘lari bilan amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun bank tariflariga asosan haq undiriladi.

5.5. Fuqarolarning bankdagi omonatlari O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq kafolatlangan.

5.6. Shartnoma teng yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzildi va tomonlarga bir nusxadan berildi.

OMONAT AMALIYOTLARI TO'G'RISIDA MA'LUMOT

_____ kassa raqami _____	_____ omonatchi F.I.Sh _____	_____ h/r № _____
_____ filial nomi _____	_____ tug'ilgan sanasi _____	_____ valyuta turi _____

№	Sana	Amaliyot turi	Kirim	yillik foizi		Qoldiq	Foizlari	muddati		Imzolar	
								Nazoratchi kassir	Omonatchi		

Belgilar uchun _____

Tomonlarning manzili va rekvizitlari

<p align="center">“Bank”</p> <p>_____</p> <p>Manzili: _____</p> <p>_____</p> <p>MFO: _____</p> <p>Tel: _____</p> <p>Boshqaruvchi yoki BXM rahbari _____</p> <p>_____</p> <p>Nazoratchi-kassir: _____</p>	<p align="center">“Omonatchi”</p> <p align="center">_____ (F.I.Sh.) _____</p> <p>_____</p> <p>Manzili: _____</p> <p>_____</p> <p>Pasport ma'lumotlari: _____</p> <p>_____</p> <p>Tel: _____</p> <p align="right">_____ <i>yopish sanasi</i></p> <p align="right">_____ <i>“Shartnoma shartlari va omonat qoidasi bilan tanishdim”</i></p> <p align="center">_____ (F.I.Sh) _____ (imzo)</p>
---	--